

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN
DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ERMATOV G‘AFUR XOLBOYEVICH

**TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI ISHLAB
CHIQRISHINING INVESTITSION FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences**

Ermatov G'afur Xolboyevich

To'qimachilik sanoati korxonalari ishlab chiqarishining investitsion faolligini rivojlantirish3

Эрматов Гафур Холбоевич

Развитие инвестиционной активности производства предприятий текстильной промышленности25

Ermatov Gafur Holboevich

Development of investment activities of textile industry enterprises.....49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published

works.....57

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN
DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ERMATOV G‘AFUR XOLBOYEVICH

**TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI ISHLAB
CHIQRISHINING INVESTITSION FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt3991 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (tdtu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xashimov Akram Abdiyevich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tillyaxodjayev Muzaffarxodja Abdupataxovich

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Davranov Orzu Abdujabbarovich

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri Universitet ko‘chasi 2-uy. Tel.: (99871) 207-44-40; faks: (99871) 227-10-32. E-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri Universitet ko‘chasi 2-uy. Tel.: (99871) 207-44-40; faks: (99871) 227-10-32. e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Ikramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O.I. Begmullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.f.d. (PhD)

G.B. Yusupxodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi
i.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon to‘qimachilik mahsulotlari bozorida raqobat kurashi keskinlashib bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, “yengil sanoat hissasiga dunyo sanoat ishlab chiqarishining 5,8 %, band bo‘lganlarning 14,0 % dan ortiqrog‘i to‘g‘ri keladi. So‘nggi 15 yil davomida to‘qimachilik materiallari va kiyim-kechak iste‘mol qilish Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlarida 90,5% ga, AQShda – 99,3% ga va Yaponiyada – 220,0% ga o‘sgan”¹. Shu jihatdan yuqori sifatli mahsulot turlarini ishlab chiqarishda to‘qimachilik sanoati korxonalarining bozor talablariga moslashuvchanligini ta‘minlashda ishchanlik faolligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda to‘qimachilik korxonalarini raqobat ustunligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishda innovatsiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil etishda klaster siyosatini qo‘llash, strategik rivojlanishni prognozlash yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy-tadqiqotlarda, ayniqsa, sifat menejmenti va boshqaruv tizimlari integratsiyalashuvi, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ta‘minlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga erishish, yashil iqtisodiyot tamoyillaridan foydalanish orqali tejamkor ishlab chiqarishlarni tashkil etish, raqamlashtirish texnologiyalarini qo‘llash asosida xarajatlarni kamaytirish, barqaror rivojlanishini ta‘minlashda ular faolligini oshirish yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining istiqbolda barqaror rivojlanishini ta‘minlashda jahon bozori iste‘molchilarining talabini to‘la qondirish maqsadida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda klaster shaklidan foydalanish, eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalarni jalb etish ko‘lamini oshirish, eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko‘paytirish”² vazifasi belgilangan bo‘lib, mazkur vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi respublika to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishda ular faolligini oshirishni taqozo etadi. Bu borada milliy to‘qimachilik korxonalarini ishchanlik faolligini tavsiflovchi qiymat va sifat ko‘rsatkichlari asosida baholash yondashuvlarini takomillashtirish, to‘qimachilik sanoati korxonasining uzoq muddatdagi strategik vazifalaridan sanalgan korxonalar qiymatini oshirishda investitsiya faolligini ta‘minlash asosida imkoniyat va natijalar muvozanatli tizimining maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, to‘qimachilik korxonalarida strategik raqobat ustunligini ta‘minlaydigan investitsiya faolligini oshirishda xodimlarini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ www.oecd.org

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. // www.lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 6-martdagi PQ-4633-son “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 16-sentabrda PQ-4453-son “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 12-fevralda PQ-4186-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 253-son “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy axloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi, ularning investitsiya faolligini tadqiq etish, baholash va boshqarish masalalari xorijlik olimlar P. Masse, F. Brigxem Yudjin, S. Erxart Maykl, J.K. Van Xorn, J.M. Vaxovich, K.L. Makkonel, S.L. Bryu, E. Samuelson Pol, D. Nordxaus Vilyam, D. Stoun, K. Xitching, E. Xelfert, J.K. Xorn, F. Uilyam Sharp, J. Gordon Aleksander, V. Djeffri Beyli, F. Eugeyn, F. Joyel va boshqalar³ tomonidan o‘rganilgan.

MDH mamlakatlarida sanoat korxonalarini rivojlanishi va ushbu jarayonda investitsiya faolligini rivojlantirish masalalari bilan A.N. Asaul, V.V. Bocharova, V.V. Kovalev, L.Y. Klimenko, T.V. Nakonechnaya, I.V. Sidorenko, V.R. Bank, Y.F.

³Masse П. Критерии и методы оптимального определения капиталовложений / Пер.с фр. –М.: Статистика, 2011. – 160 с.; Бригхэм Юджин Ф., Эрхарт Майкл С. Финансовый менеджмент (Financial Management: Theory and Practice): Учебник. – 12-й изд., — СПб.: Питер, 2018. – 960 с.; Ван Хорн Дж. К., Вахович Дж.М. Основы финансового менеджмента / Пер. с англ. – 15-е изд. – М.: Вильямс, 2019. – 122 с.; Макконел К.Л. Экономика / К.Л. Макконел, С.Л. Брю – М.: ИНФРА-М, 2003. – 993 с.; Самуэльсон Пол Э., Нордхаус Вильям Д. Экономика / Пер. с англ. — в 2-х тт. – М.: ООО “И.Д. Вильямс”, 2011. – 1360 с.; Стоун Д. Бухгалтерский учет и финансовый анализ. Подготовительный курс /Д. Стоун, К. Хитчинг. – М.: Юрайт – 2014. – 304 с.; Хелферт Э. Финансовый анализ / Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 674 с.; Хорн Дж. К. Ван. Основы управления финансами. – Пер. с англ. / гл. ред. серии Я.В. Соколов. – М.: Финансы и статистика, 2015. – 800 с.; Шарп У.Ф. Инвестиции: учебник: для использования в учебном процессе студентами высших учебных заведений, обучающихся по экономическим специальностям / Уильям Ф. Шарп, Гордон Дж. Александер, Джеффри В. Бэйли. — Москва: Инфра-М, 2022. — 1027 с.; Eugene F. Brigham/Joel F. Houston. Fundamentals of Financial Management. — Cengage India Private Limited, 2021. – 836 p.

Borisov, L.V. Donsova, V.V. Kovalev, A.D. Sheremet, S.P. Kirilchuk va boshqalar⁴ shug‘ullanishgan.

Mamlakatimizda sanoat, xususan, to‘qimachilik sanoati rivojlanishi va investitsiyalashning nazariy va uslubiy A. O‘lmasov, A.V. Vahobov, D.G‘. G‘ozibekov, M.R. Boltaboyev, N.M. Maxmudov, A. Ortiqov, R.A. Isayev, M.A. Tillyaxodjayev, B.O. Tursunov, Sh.P. Xayitov, S.Sh. Yusupov, O.A. Davronov va boshqalar⁵ tomonidan tomonidan tadqiq etilgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.X. Shoalimov, Sh.A. Tojiboyevalar⁶ investitsion faolligini o‘rganishda bozor faolligini tahlil qilish masalalarini qarab chiqqan, T.Sh. Shog‘iyosov⁷ tomonidan investitsiyalar faolligini ishbilarmonlik faolligini baholash tarzida bayon etilgan, Sh.S. Maxmudov⁸ tomonidan to‘qimachilik korxonalarini investitsion faolliqi boshqarish masalalari o‘rganilgan.

Shu bilan birga, to‘qimachilik korxonalarining investitsiya faolliqi rivojlanishini iqtisodiy jihatdan asoslash masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu holat mazkur yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi va ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

⁴Асаул А.Н. Интегративное управление в инвестиционном менеджменте / А.Н. Асаул. — М.: СПб: Гуманистика, 2016. — 248 с.; Бочаров В.В. Финансово-кредитные методы регулирования инвестиций. -М: Финансы и статистика, 2019. -144 с.; Ковалев В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры / В.В.Ковалев. — М.: Финансы и статистика, 2014. — 560 с.; Клименко Л.Е. Совершенствование управления деловой активностью организаций потребительской кооперации: дис. на соискание учёной степени д.э.н. — Белгород: Белгородский ун-т потреб. кооп., 2010. — 278 с.; Совершенствование управления деловой активностью промышленного предприятия / М.К.Аристархова, Т.В.Наконечная // Монография / Уфимский государственный авиац. Техн. Ун-т. — Уфа: УГАЕУ, 2013. — 170 с.; Сидоренко И.В. Влияние деловой активности на результативность деятельности промышленных предприятий: автореф. на соискание учёной степени к.э.н. — Москва, 2010. — 22с.; Банк В.Р. Финансовый анализ: учеб. пособие / В.Р. Банк, С. В. Банк. — М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2014. — 249 с.; Борисов Е.Ф. Экономика: учебник и практикум / Е. Ф. Борисов. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2021. — 383 с.; Донцова Л.В. Комплексный анализ бухгалтерской отчетности / Л.В.Донцова, Н.В.Никифорова. — М.: Издательство “Дело ва Сервис”, — 6-е изд., 2019. — 542 с.; Шерemet А.Д. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций: практическое пособие / А.Д. Шерemet, Е.В. Негашев. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2020. — 208 с.; Экономика предприятия: учебник для вузов / С. П. Кирильчук [и др.]; под общей редакцией С.П. Кирильчук. — М.: Издательство Юрайт, 2022. — 417 с.

⁵O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi Darslik. TDIU –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014.; G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. -T.: Moliya, 2003. -215 b.; Boltaboyev M.R. To‘qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. Monografiya. –T.: Fan, 2004.-224 b.;Maxmudov N.M., Xomidov S.O. O‘zbekiston sanoati rivojlanish omillari, tendensiyasi va muammolari. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2017.; Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti: Darslik. — Toshkent: TDIU, 2014. — 256 b.; Isayev R.A. To‘qimachilik sanoatida sifat menejmenti tizimi asosida strategik boshqarishni takomillashtirish metodologiyasi. Iqt. Fanlari doktori (DSc) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. — Toshkent: TDIU, 2023. — 34 b.; Тилляходжаев М.А. Экономическая стратегия развития хлопкоочистительной промышленности в условиях рыночной экономики [Текст]: автореф. дис... док. экон. наук: 08.00.03 / М.А.Тилляходжаев. — Ташкент, 2020. - 32 с.; Tursunov B.O. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari. IFFD (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent: TDIU, 2019. — 24 b.; Xayitov Sh.P. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. IFFD (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. — Toshkent: TDTU, 2023. — 24 b.; Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. IFFD (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. — Toshkent: TDIU, 2018. — 24 b.; Управление устойчивым развитием предприятий нефтегазовой промышленности. — Ташкент: ANTELART, 2013, — 202 с.

Davronov O.A. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. IFFD (PhD) ilmiy daraj. olish uchun yozilgan avtoreferat. — Toshkent: TDIU, 2018. — 24 b.

⁶Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili; O‘quv qo‘llanma. — T.: TDIU, 2011. — 305 b.

⁷Shog‘iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil: Darslik. — T.: Fan va texnologiya, 2012. — 280 b.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F.1.100-sonli "Investitsiya salohiyati nazariyasini va uni shakllantirish mexanizmlarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoatining mavjud salohiyatidan oqilona foydalanish orqali rivojlanishini ta'minlashda investitsiya faolligini oshirish samaradorligi yo'llarini izlab topish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish sanaladi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini ishlab chiqarish jarayonining nazariy asoslarini o'rganish;
sanoat korxonalarini rivojlanishini ta'minlashda faollik tizimining iqtisodiy mohiyati, tarkibiy tuzilmasini o'rganish va unda investitsiyaviy faollikning o'rnini baholash;

sanoat korxonalarini rivojida salohiyatidan foydalanishda investitsiyaviy faollik darajasini baholash yondashuvlari va usullarini o'rganish;

O'zbekiston to'qimachilik sanoati rivojlanishining hozirgi holati va muammolari tahlilini amalga oshirish;

to'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojini ta'minlashda ularning investitsiya faolligi holatini tahlil qilish;

to'qimachilik korxonalarini salohiyatidan foydalanishda investitsiyaviy faollik darajasini baholash uslubini takomillashtirish;

to'qimachilik korxonalarida balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini qo'llash orqali investitsiya faolligini jadallashtirish imkoniyatlarini izlab topish;

to'qimachilik korxonalarini investitsiya faolligini jadallashtirishda motivlashtirish mexanizmini takomillashtirish;

to'qimachilik sanoati rivojida investitsiya faolligi jadalligini ekonometrik modellar yordamida prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibiga kiruvchi ishlab chiqarish korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib to'qimachilik sanoati korxonalarini asosiy ishlab chiqarishining investitsiyaviy faolligini tashkil etishda yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli va statistik tahlil, taqqoslash, ekspertlar bahosi, grafik talqin, samaradorlikni baholashning integral ko'rsatkichi, korrelyatsion-regression tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik korxonalarini barqaror rivojida investitsiya faolligini uni tashkil etuvchilarining miqdor va sifat tavsiflari asosida integral oraliq natijalari yondashuviga [past (0-0,5), qoniqarli (0,51-1,0), o'rta (1,1-1,5), yuqori (1,51 va undan yuqori)] ko'ra baholash taklif etilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarini investitsiya faolligini ta'minlash asosida barqaror rivojlanishi imkoniyat va natijalar muvozanatli tizimining istiqbollari korxonaga qiymatini oshirishda maqsadli dasturning eng maqbul variantini kiritish orqali asoslangan;

to'qimachilik korxonalarida investitsiya faollikni jadallashtirish orqali rivojlanishni ta'minlash uchun xodimlarni rag'batlantirish tizimi ular potensial imkoniyatlarini ballar yordamida baholash negizida takomillashtirilgan;

taqqoslama trend modellarini tuzish asosida "BETLIS TEKSTIL" to'qimachilik korxonasi rivojida investitsiya faolligi jadalligining 2023-2030-yillarga mo'ljallangan muqobil qiymatlarining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik sanoati korxonalarida rivojida investitsiya faolligi tarkibini tizimlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

to'qimachilik korxonasi barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi investitsiya faolligini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishning tizimli-integrallashgan konsepsiyasi bazis modullari taklif etilgan;

to'qimachilik korxonalarida barqaror rivojida investitsiya faolligining tavsiflovchi uning darajasini baholash usuli miqdor va sifat ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan;

balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimiga korxonada investitsiya faolligiga vazifaviy strategiyalarni moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

to'qimachilik korxonasi barqaror rivojlanishini ta'minlashda investitsion faolligini jadallashtirishda xodimlarni rag'batlantirishning ular imkoniyatlarni hisobga olishga yo'naltirilgan mexanizmi ishlab chiqilgan;

to'qimachilik sanoati korxonalarida rivojida investitsiya faolligi jadalligini prognozlashning ekonometrik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va umumlashtirish, to'qimachilik tarmog'ida investitsiya faolligini boshqarish borasidagi mavjud ilmiy-tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi va ularni samarali tahlil usullaridan foydalanish orqali qayta ishlanganligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining statistik ma'lumotlariga, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'qimachilik sanoati korxonalarining bozor iqtisodiyoti o'zgarishlariga tezkor moslanuvchanlikni ta'minlash asosida raqobatda ustunlikka erishishga yo'naltirilgan investitsiya faolligini rivojlantirish, uning samaradorligini baholash va uni oshirish imkoniyatlarini izlab topishga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan xulosa va takliflarni hisobga olgan holda to'qimachilik sanoati korxonalarining mavjud imkoniyatlaridan faol foydalanishda, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarish asosida klasterlarni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To‘qimachilik sanoati korxonalarini investitsiya faolligini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

to‘qimachilik korxonalarini barqaror rivojida investitsiya faolligini uni tashkil etuvchilarining miqdor va sifat tavsiflari asosida integral oraliq natijalari yondashuviga ko‘ra baholash usuli “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan (“FULL COTTON” to‘qimachilik korxonasi uchun 2024-yil 14-avgustidagi dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi Natijasida “FULL COTTON” to‘qimachilik korxonasi investitsiya faolligi integral ko‘rsatkichini 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1,101 bandga oshirish imkonini yaratilgan;

korxonaning qiymatini oshirishda maqsadli dasturning eng maqbul variantini kiritish orqali asoslangan to‘qimachilik sanoati korxonalarini investitsiya faolligini ta‘minlash asosida imkoniyat va natijalar muvozanatli tizimining strategik istiqbollari “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi korxonalarini faoliyatiga joriy etilgan (“FULL COTTON” to‘qimachilik korxonasi uchun 2024-yil 14-avgustidagi dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi Natijasida “FULL COTTON” to‘qimachilik korxonasi uchun 2023-yilda 2022-yilga nisbatan taqqoslama narxlarda yalpi foyda ko‘rsatkichini 5,22 % ga o‘shirish sur‘atini ta‘minlash imkonini yaratilgan;

to‘qimachilik korxonalarida investitsiya faolligini jadallashtirishda xodimlarning potensial imkoniyatlarini ballar yordamida baholash asosida takomillashtirilgan rag‘batlantirish tizimi “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi korxonalarini faoliyatiga joriy etilgan (“BETLIS TEKSTIL” to‘qimachilik korxonasi uchun 2024-yil 14-avgustidagi dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi Natijasida “BETLIS TEKSTIL” to‘qimachilik korxonasi uchun taqqoslama narxlarda sotishdan tushgan yalpi tushum ko‘rsatkichining 16,7 % ga o‘shirish sur‘atini ta‘minlash imkonini yaratilgan;

taqqoslama trend modellarini tuzish asosida “BETLIS TEKSTIL” to‘qimachilik korxonasi rivojida investitsiya faolligi jadalligining 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan muqobil qiymatlarining prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi korxonalarida ish faoliyatini nazorat qilish hamda strategik rivojlanish tizimi amaliyotiga joriy etilgan (“BETLIS TEKSTIL” to‘qimachilik korxonasi uchun 2024-yil 14-avgustidagi dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi Natijasida “BETLIS TEKSTIL” to‘qimachilik korxonasi uchun ishchanlik faolligi ko‘rsatkichi 2024-2030-yillarda o‘rtacha yiliga 20,0 foizga yoki 2030-yilda 2023-yilga nisbatan umumiy 1,14 barobarga oshishi bashoratlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 145 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalari ishlab chiqarishining investitsion faolligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning mohiyati, tamoyillari va turlarining nazariy asoslarini o'rganish, sanoat korxonalari rivojlanishini ta'minlashda faollikni oshirishning iqtisodiy mohiyati, omillari va tarkibiy tuzilmasini o'rganish hamda unda investitsiyaviy faollikning o'rnini baholash, mualliflar tomonidan unga berilgan ta'riflarni talqin qilish, investitsiya faolligini shakllantirish omillarini tizimlashtirish va tarkibining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, sanoat korxonalari rivojida salohiyatidan foydalanishda investitsiya darajasini baholash yondashuvlari va usullarini o'rganish kabi masalalar o'rganilgan.

Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishda bir qancha resurslar ishtirok etadi. Mahsulot turi, assortimenti, ishlab chiqarish ko'lamiga binoan ishlab chiqarish jarayoni bir-biridan farq qiladi. Chegaralangan resurslar doirasida keskin raqobatning kuchayishi sharoitida yashil iqtisodiyotni samarali tashkil etish uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Binobarin, sanoat korxonalari moliyaviy holatining barqarorligi aynan uning faolligi bilan ifodalanadi. Respublikamizdagi ko'plab ishlab chiqarish korxonalari moliyaviy holati barqaror bo'lmay, bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiy holatiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan, korxonada investitsiya faolligini har tomonlama o'rganish orqali uni xolisona baholash mamlakat iqtisodiy holatini yanada yaxshilashning muhim omillaridan biri sanaladi. Iqtisodiy fanlar tizimi XX asr oxirlarigacha faollik ko'rsatkichini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muhim kategoriyalaridan biri sifatida qarashga yetarlicha e'tiborni qaratmagan. Ushbu ko'rsatkichning obyektiv mavjud ekanligiga qaramay, uning ko'p jihatlari chuqur o'rganilmay kelingan. Shu bilan birgalikda bozor tizimi rivojlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, faollik kishilik jamiyati va jahon xo'jaligining rivojlanish jarayonida sifat jihatidan o'zgardir va uning taraqqiyotida muhim rollardan birini bajarib kelmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, faollik bozor iqtisodiyoti rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sanaladi. Samarali bozor munosabatlarini shakllantirish uchun iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida, xususan, to'qimachilik

sanoati tarmog'ida diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish natijasida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot turlarini ishlab chiqarish uchun tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish talab etiladi. Mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratildi. Bozor munosabatlariga o'tish mamlakatimiz iqtisodiyotining makro va mikro darajalarida xilma-xil yangi faoliyat turlarining vujudga kelishiga va ularning rivojlanishiga asos soldi. Shunday faoliyat turlaridan biri bo'lib, jumladan, investitsiya faoliyati hisoblanadi.

Dastlab faollik tushunchasi faqat resurslardan foydalanish darajasida moliyaviy holatni baholash bo'yicha makrodarajada iqtisodiy hodisalarni tavsiflashda qo'llanilgan va iqtisodiyotning siklligidagi to'liqsimon hodisalarni o'rganishga yo'naltirilgan. Mualliflar tomonidan investitsiya faoliyatining mohiyatini ochib berish, shuningdek, investitsiyaviy loyihalar samaradorligi masalasi har tomonlama o'rganilgan.

Bizningcha, mualliflar tomonidan investitsiya faoliyati, investitsiyaviy loyihalar samaradorligini baholash, investitsiya muhiti jozibadorligini o'rganish kabi masalalarga asosiy e'tiborni qaratishgan. Ammo, ishlab chiqilgan investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari, samarali investitsiyani siyosatini amalga oshirishda faollikni oshirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan, ushbu holat esa, investitsiya faolligi ko'rsatkichi mohiyatini to'liq tavsiflamaydi, chunki korxonalar natijaviyligi, vaqt omili qarab chiqilmagan.

Bizning fikrimizcha, "korxonada investitsiya faolligi – bu ma'lum vaqt oralig'ida korxonaning mahsulot ishlab chiqarish-sotish jarayonida mavjud investitsiya resurslarining oqilona taqsimotini amalga oshirish orqali tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanlik asosida raqobatda ustunlikka erishish va jozibadorlikni ta'minlash maqsadidagi faol xatti-harakatlar majmuasidir".

Investitsiya faolligini jadallashtirishda imkoniyatlarni izlab topish, bizning fikrimizcha, uning tizim osti tashkil etuvchilari sanalgan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi: marketing faolligi, ishlab chiqarish faolligi, mehnat faolligi, innovatsiya faolligi, bozor faolligi, boshqaruv faolligi, moliyaviy faollik. Dissertatsiyada ishchanlik faolligi har bir tizim osti elementlari mohiyati ochib berilgan.

Ammo, shuni ta'kidlash joizki, Respublikamizda to'qimachilik sanoati korxonalari faoliyatida ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda mazkur tarmoqni bozor iqtisodiyoti o'zgarishlariga moslanuvchan tarzda tashkil etish, ayniqsa, Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishdagi belgilangan ustuvor yo'nalishlar doirasidagi vazifalarni bajarishda investitsiya faolligini boshqarishda o'z yechimini kutayotgan bir qancha muammolar ham mavjud bo'lib, ularni hal etish bo'yicha tegishli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhimligi bilan ajralib turadi. Bu esa o'z navbatida to'qimachilik sanoati korxonalari investitsiya faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Dissertatsiyada to'qimachilik sanoati korxonalari investitsiya faolligini oshirish zaruratini keltirib chiqaruvchi quyidagi omillar keltirib o'tilgan: biznes-jarayon tarkibiy tuzilmasining bozor talablariga, uning o'zgarishlariga moslanuvchan emasligi, investitsiya faolligini boshqarishda zamonaviy usul va uslublardan foydalanish samaradorligining pastligi, investitsiya

faolligini oshirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lamining tor doiradaligi, “ta’lim-fan-ishlab chiqarish” integratsion aloqalarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, xodimlar malakasining pastligi, ularning mehnatini rag‘batlantirish tizimining takomillashtirilmaganligi, investitsiya faolligini oshirishda biznes-jarayonlarining to‘liq avtomatlashtirilmaganligi, hujjatlar aylanmasining muqobillashtirilmaganligi, investitsiya faolligi samaradorligini baholash tizimining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi, ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakllarining keng miqyosda joriy etilmaganligi.

Dissertatsiyada sanoat korxonasi investitsiya faolligini baholash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish orqali quyidagi kamchiliklar aniqlandi: investitsiya faolligi ko‘p hollarda aylanuvchanlik bilan tenglashtirilgan, u aylanuvchanlikka bog‘liq bo‘lib qolgan; qarab chiqilgan barcha uslublardan birortasida pul-oqim ko‘rsatkichlari tahlil qilinmagan; faqat investitsiya samaradorligini hamda jozibadorligiga asosiy e’tibor qaratilgan. Binobarin, tor doiradagisi korxonada investitsiya faolligi darajasini xolisona baholashga imkon bermasa, keng doiradagilari hisob-kitob ishlari qiyinlashishiga olib keladi; investitsiya faolligini tahlil qilishning standartlashtirilgan usublari korxonada faoliyatining pirovard va oraliq natijalari bilan qiziquvchilarning zaruriy axborotlar bilan to‘liq ta’minlanishiga imkoniyat bermaydi; investitsiya faolligini baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi faqat ishlab chiqarish, mehnat va moliyaviy faoliyatlarning analitik ko‘rsatkichlarini qamrab olgan, xolos; investitsiya faolligi mutlaq ko‘rsatkichlarini tartiblashtirish amalga oshirilmagan; xo‘jalik subyekti investitsiya faolligini to‘liq tavsiflovchi yagona kompleks ko‘rsatkich mavjud emas. Shu boisdan, sanoat korxonasining investitsiya faolligini har tomonlama va to‘g‘ri baholashning yangi uslubiyatini ishlab chiqish kerak.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoati salohiyatidan foydalanishda ular investitsiya faolligi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati rivojlanishining hozirgi holati va muammolari tahlilini amalga oshirish, to‘qimachilik sanoati korxonalari barqaror rivojini ta’minlashda investitsiya faolligi holatini tahlil qilish, to‘qimachilik korxonalari salohiyatidan foydalanishda investitsiya faollik darajasini baholash uslubini takomillashtirish kabi masalalar o‘rganilgan.

Hozirgi paytda Respublikamiz to‘qimachilik sanoatining asosiy qismi “O‘zbekto‘qimachilik sanoati” uyushmasiga jamlangan bo‘lib, u o‘z tarkibiga qariyb 2 mingdan ortiq yirik korxonalar va birlashmalarni oladi.

Statistik ma’lumotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi bo‘yicha qiyosiy narxlarda tovar mahsuloti hajmi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 2,41 barobarga oshgan yoki 41 trln 607 mlrd 300 mln so‘mni tashkil etgan. Yarim tayyor to‘qimachilik mahsulotlari – paxta kalava ipi 162,1 % ni, tayyor ip gazlama, trikotaj matosi ishlab chiqarish hajmi o‘sishi o‘rganilayotgan davrda mos ravishda 3,47 va 2,48 barobarni tashkil etgan bo‘lsa, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari va paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘sishi jadal sur’atda amalga oshgan va mos ravishda 5,23 va 3,76 barobarni tashkil etgan. 2019-yilda to‘qimachilik mahsulotlari eksport hajmi 1,541 mlrd AQSh

dollarini tashkil etgan bo'lsa, ushbu miqdor 2023-yilda qariyb 2,2 barobarga oshib, 1857,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan.

Buning asosiy sababi bugungi kunda yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor to'qimachilik mahsulotlari (kiyim-kechaklar) ishlab chiqarish sur'ati jadal rivojlanayotganligidir (1-jadval).

1-jadval

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi korxonalarida 2019-2023-yillarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, tarmoqqa kiritilgan investitsiya miqdori va eksporti dinamikasi⁹

Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'sishi	
							(+;-)	%
Qiyosiy narxlarda tovar mahsuloti hajmi	mlrd so'm	17248,8	21991,2	33025,1	39101,7	41607,3	+24358,5	+2,41 marta
Paxta kalava ipi	ming tonna	575,2	629,8	862,3	905,0	932,4	+357,2	+162,1
Tayyor ip gazlama	mln m ²	268,3	406,0	716,2	810,0	930,7	+662,4	+3,47 marta
Trikotaj matosi	ming tonna	111,2	119,6	203,8	240,0	275,8	+164,6	+2,48 marta
Tikuv-trikotaj mahsulotlari	mln dona	432,0	548,1	1 997,8	1380,0	2691,0	+2259,0	+5,23 marta
Paypoq mahsulotlari	mln juft	197,3	257,0	450	460,0	742,0	+577,7	+3,76 marta
Eksport	mln AQSh doll.	1541,3	1868,4	2945,2	3300,0	3400,0	+1857,7	+2,2 marta
Investitsiya	mln AQSh doll.	832,3	712,9	733,2	771,2	730,3	-102	-12,25

“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining 2019-2023-yillar innovatsion-investitsion faoliyati dinamikasi ma'lumotlari 2-jadvalda keltirilgan.

Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik tarmog'ida o'rganilayotgan davrda o'zlashtirilgan innovatsion-investitsiya loyihalari soni bir xil o'zgarish tendensiyasiga ega emas. 2019-2022-yillarda loyihalar soni o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2019-yilda 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 86 tagacha o'sishi ro'y bergan. Ammo 2023-yilda o'zlashtirilgan

Maxmudov Sh.S. To'qimachilik sanoati korxonalarida ishchanlik faolligini boshqarishni takomillashtirish. I.f.f.d. ... dissertatsiyasi. – T.:TDIU, 2019. – 156 b.

⁹“O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

innovatsion-investitsiya loyihalari soni 44 tani tashkil etgan. O‘rganilayotgan davrda innovatsion-investitsiya loyihalari qiymatidagi o‘zgarishlar ham har xil bo‘lgan.

2-jadval

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi 2019-2023-yillar innovatsion-investitsion faoliyati dinamikasi¹⁰

t/r	Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
1.	O‘zlashtirilgan innovatsion-investitsiya loyihalari soni	65	71	85	86	44
2.	Innovatsion-investitsiya loyihalari qiymati, mln doll. Shu jumladan:	829,7	474,1	836,3	326,3	344,6
	O‘z mablag‘lari hisobiga	268,6	136,4	216,5	104,6	99,0
	Tijorat banklari krediti	536,7	234,4	140,8	56,4	58,9
	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	24,3	103,3	479,0	165,3	186,7
3.	Yaratilgan ish o‘rinlari soni	15568	16855	22820	23000	26100
4.	Innovatsion-investitsiya loyihalar eksport salohiyati, mlndoll.	377,3	187,4	255,8	101,2	265,0

Xususan, 2019-yilda ushbu qiymat 829,7 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, eng yuqori qiymatga 2021-yilda erishilgan va 836,3 mln AQSH dollarini tashkil etgan. 2019-yilda ushbu jalb etilgan mablag‘larning asosiy manbasi tijarat banklari krediti (64,68 % ini) tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda esa xorijiy investitsiyalar va kreditlar (54,18 % ini) tashkil etgan. Tarmoq bo‘yicha 2023-yilda 26100 ta yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan umumiy qiymati 344,6 mln AQSH dollariga teng bo‘lgan 44 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda ham 44 ta innovatsion-investitsiya loyihalari doirasida to‘liq summa o‘zlashtirilgan. Ushbu innovatsion-investitsiya loyihalarini amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 2019-yilda eksport salohiyati 377,3 mln AQSH dollarini tashkil etgan va 2023-yilda ushbu summa 265,0 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish evaziga sohada sifat ko‘rsatkichlari hamda mahsulot ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarish, jumladan tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 114% ga o‘sgan.

Tadqiqotda “BEST COLOR TEXTILE” mas’uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ)ning 2019-2023-yillardagi faoliyati natijalariga oid statistik hisobot materiallari asosida uning ishchanlik faolligi holatini o‘rganishni amalga oshirilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “BEST SOLOR TEXTILE” MCHJ ning 2019-2023-yillardagi aktivlari aylanish koeffitsiyenti bazis 2019-yilda 1,70 ga teng bo‘lgan va o‘rganilayotgan davrda uning o‘zgarishi notekis ravishda ro‘y bergan. Xususan, bazis yilga nisbatan 2020-yilda o‘zgarish 100,85 % ni, 2021-yilda pasayishi, 2022-yilda oshishi va 2023-yilda esa 13,40 % ga pasayishi ro‘y bergan. Uning qiymatining joriy 2023-yilda 2022-yilga pasayganligi shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik korxonasi kapital sekinroq aylana boshlagan va natijada korxonaning aktivlarining har bir so‘mi oldingi yillarga nisbatan kamroq foyda keltira boshlagan.

¹⁰“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ya'ni, pasayish tendensiyasi to'lov qobiliyatining, aktivlar birligining rentabelligi va ulardan foydalanish samaradorligining pasayishi oqibatini ko'rsatadi. Ammo shuni ta'kidlash mumkinki, o'rganilayotgan davrda bazis yilga nisbatan debitorlik qarzlarning aylanishi koeffitsiyenti qiymati 2020- va 2021-yilga pasayishi ro'y bergan bo'lsa, 2022- va 2023-yillarda oshishi kuzatilgan. So'nggi yillarda ushbu to'qimachilik korxonasi debitorlik qarzlarni boshqarish samaradorligi darajasi oshganligi natijasida qarzdorlar tomonidan qarzlarni to'lash tezligining oshishi hisobiga korxonaning to'lov qobiliyatining oshishini ta'minlab bergan. "BEST SOLOR TEXTILE" MCHJ ning o'rganilayotgan davrda kreditorlik qarzlari aylanishi koeffitsiyenti o'zgarishi bir tomonlama oshish tendensiyasi kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida ushbu korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati pasayishini keltirib chiqaradi. Uning hajmini kamaytirish choralarini o'z vaqtida ko'rish talab etiladi.

Dissertatsiyada sanoat korxonasi rivojida investitsiya faolligini baholashning mavjud usullariga tayangan holda barcha to'qimachilik korxonasi ishlab chiqarishidagi ajralib turadigan belgilariga qarab uning investitsiya faolligini hisoblashning model ko'rinishidagi uslubini ishlab chiqilgan. Uni amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. To'qimachilik sanoati korxonasi investitsiya faolligi holatini tahlil qilish.

2-bosqich. Tarmoqning va ilmiy-tadqiqot muassasalarining yetuk mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhini tanlash.

3-bosqich. Ekspertlar tomonidan korxonaning investitsiya faolligini baholashning ko'rsatkich va mezonlarini tanlash.

4-bosqich. Korxonaning investitsiya faolligini baholash usulini ishlab chiqish.

5-bosqich. Koeffitsiyentlarning axborot modulini standartlashtirish va me'yorlashtirish hamda ularni hisoblangan ma'lumotlar majmuasiga keltirish.

6-bosqich. Investitsiya faolligini baholash.

7-bosqich. To'qimachilik sanoati korxonalarini investitsiya faolligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va asosiy omillarini prognozlash.

Ham sifat, ham miqdoriy ko'rsatkichlar integral bahosini hisobga oladigan investitsiya faolligi koeffitsiyenti (IFK) quyidagicha taqdim etiladi (formula 1). Shu bilan birga, biz sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni maksimal darajada oshirishni ham hisobga olamiz. Shuning uchun, sifat ko'rsatkichining, ya'ni maxrajning pasayishi natijasida IFK ning mumkin bo'lgan o'sishining oldini olish uchun ko'rsatkichni farq sifatida ko'rsatish kerak ($100 - K_{sifat}$):

$$IFK = \frac{K_{miqdor}}{1 - K_{sifat}}, \quad (1)$$

Dissertatsiyada investitsiya faolligi darajasining olingan qiymatlarini baholash shkalasi ishlab chiqilgan. Investitsiya faolligi darajasining olingan qiymatlarini baholash ishlab chiqilgan iyerarxik shkalaga muvofiq taqsimlanadi va 2-jadvalda keltirilgan.

Uslubiyatni sinovdan o'tkazish uchun empirik asos sifatida Toshkent shahri va Buxoro viloyatining hududiy tarmoq korxonalarini tanlandi: "KAMALAK

SHABNAM TEKS” MCHJ; “BEST COLOR TEXTILE” MCHJ; “BETLIS TEKSTIL” MCHJ; “FULL COTTON” MCHJ. Hisob-kitob ishlari uchun ushbu to‘qimachilik korxonalarining 2018-2022-yillardagi hisobot materiallaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilda “KAMALAK SHABNAM TEKS” MCHJ va “BEST COLOR TEXTILE” MCHJ da ishchanlik faolligi darajasi “o‘rta”, va “FULL COTTON” MCHJ va “BETLIS TEKSTIL” MCHJ da “yuqori” darajadadir.

2-jadval

Sanoat korxonasi rivojida investitsiya faolligi darajasi qiymatining iyerarxik shkalasi¹¹

Past (IFK_p)	Qoniqarli (IFK_q)	O‘rta (IFK_o)	Yuqori (IFK_{yu})
$IFK_p < 0,5$	$0,5 \leq IFK_q < 1$	$1 \leq IFK_o < 1,5$	$IFK_{yu} \gg 1,5$

Dissertatsiyaning “**To‘qimachilik sanoati barqaror rivojlanishida korxonalarda faollikni jadallashtirishning asosiy yo‘nalishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida to‘qimachilik korxonalarida balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimini qo‘llash orqali investitsiya faolligini oshirish imkoniyatlarini izlab topish, to‘qimachilik korxonalarini investitsiya faolligini jadallashtirishda motivlashtirish mexanizmini takomillashtirish, to‘qimachilik sanoati rivojida investitsiya faolligi jadalligini ekonometrik modellar yordamida prognozlash kabi masalalar o‘rganilgan.

To‘qimachilik korxonasining o‘shish strategiyasini amalga oshirishni tizimli-integratsiyalashgan boshqarishning biz tomondan taklif etiladigan konsepsiyasi uning ikki asosiy xususiyati: tizimlilik va integratsiyalashuvini namoyon etadi.


Integratsiya, birinchi navbatda, ikkita asosiy tushunchaning nazariy va metodologik qoidalarini: qiymatni boshqarish konsepsiyasi (VBM) va balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi (BSC)ni mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. VBM konsepsiyasi o‘shish strategiyasini amalga oshirish jarayonini ta‘minlovchi — korxonada qiymatini oshirish va boshqaruv qarorlarining ustuvor mezonini belgilaydi — korxonada xarajatlarini oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va asosiy o‘shish vositalarini aniqlash uchun asos yaratadi.

VBM konsepsiyasini amalga oshirishda mezon sifatida jahon amaliyotida iqtisodiy qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichi — EVA ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Aynan iqtisodiy qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichi, bizning fikrimizcha, mualliflik konsepsiyasi doirasida to‘qimachilik korxonasi o‘shish strategiyasini amalga oshirish jarayonida asosiy strategik maqsadga erishish darajasini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda monitoring qilishning asosiy mezonini sifatida ustuvor ko‘rsatkichiga aylangan iqtisodiy qiymatdir.

To‘qimachilik korxonasi barqaror rivojida investitsiya faolligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishning tizimli-integrallashgan konsepsiyasi uning

¹¹Muallif ishlanmasi.

asosiy nazariy va uslubiy qoidalarini o'z ichiga olgan quyidagi asosiy tarkibiy qismlar-modullarni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. To‘qimachilik korxonasi rivojida investitsiya faolligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishning tizimli-integrallashgan konsepsiyasi bazis modullari¹²

Dissertatsiyada “KAMALAK SHABNAM TEKS” MCHJ ning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun investitsiya faolligini oshirish maqsadida strategik xaritalar tuzildi. Strategiyani amalga oshirish sifatini nazorat qilish uchun 2022-2023 uchun to‘qimachilik korxonasi uzoq muddatli maqsadlariga erishish

¹²Muallif ishlanmasi.

darajasini aniqlash uchun balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi (BSC) qo'llanildi. Buning uchun har bir istiqbol: "Moliya", "Mijoz", "Ichki biznes jarayonlari", "O'qitish va rivojlanish" uchun to'qimachilik korxonasi strategik maqsadlariga mos keladigan moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan tayanch ko'rsatkichlar (KPI) aniqlandi. Ushbu tanlangan ko'rsatkichlarning qiymati balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi tamoyili asosida belgilandi va ularni amalga oshirish uchun mas'ul xodimlar tayinlandi.

Dissertatsiya tadqiqotlari davomida to'qimachilik sanoati o'rganilayotgan korxonalar uchun ushbu taklif etilayotgan xodimlarni rag'batlantirishning takomillashtirilgan usulini amalga oshirishda ishtirok etishning motivatsion strategiyasi tavsiya etilgan.

Dissertatsiyada to'qimachilik sanoati korxonalarini xodimlari faoliyatini baholash mezonlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar tavsiya etilgan: kompetensiya, kasbiy bilimlarning kengligi, ish tajribasi, ishbilarmonlik; o'z kompetensiyalari doirasidagi javobgarlik, intizomlilik va mustaqillik; munosabatlardagi majburiyat, iste'molchilar bilan ishlash qobiliyati, hamkorlik, kommunakabellik; tashabbuskorlik, sadoqat, qattiq ishlashga tayyorlik, yaratuvchanlik; o'z xodimlari bilan ishlash qobiliyati, muloqot qobiliyatlari, jamoani shakllantirish qobiliyati, diplomatik. Har qanday xodim 5 ta ko'rsatib o'tilgan omillar bo'yicha maksimal – 200 ball (2 koeffitsiyent) olishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, to'qimachilik korxonasi har bir xodimiga beriladigan mukofot summasi u olgan ballga mos koeffitsiyent asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblanishi lozim:

$$M = P_m^k * K_p^i \quad (2)$$

bu yerda, M – mukofot summasi, so'm

P_m^k — mansab okladiga proporsional bo'lgan mukofot summasi, so'm;

K_p^i – xodim salohiyat imkoniyatini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Ushbu mukofotlash tizimini amaliyotga qo'llash har bir xodimning investitsiya faoliyatini oshirishdagi qo'shgan hissasini xolisona baholash orqali uni rag'batlantirishga imkon beradi.

To'qimachilik sanoatini kelgusida rivojlantirishda investitsiya faolligini jadallashtirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular jumlasiga asosiy vositalar yillik o'rtacha qiymati, mehnat unumdorligi, umumiy aylanma mablag'lar summasi va boshqa bir qator omillarni keltirish mumkin.

Ushbu masalalarni yechish uchun "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi tarkibiga kiruvchi "BETLIS TEKSTIL" mas'uliyati cheklangan jamiyat tanlab olindi. Ushbu korxonada barqaror rivojlanishini ta'minlashda investitsiya faolligini tavsiflovchi integral ko'rsatkichlar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzish uchun quyidagi omillar tanlab olindi (2013 yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrdagi ma'lumotlar olindi): natijaviy ko'rsatkich – korxonaning investitsiya faolligi koeffitsiyenti - (Y), ta'sir etuvchi omillar – korxonaning sifat maqsadlariga (K_s) muvofiq investitsiya faolligining birlamchi integral ko'rsatkichi (X_1), korxonaning

miqdor maqsadlariga (K_m) muvofiq investitsiya faolligining birlamchi integral ko'rsatkichi (X_2). Ko'p omilli ekonometrik model tuzishda oldin omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazildi. Buning uchun maxsus ekonometrik modellashtirish dasturi – Eviews 10 dasturidan foydalanildi. Hisob-kitoblar bo'yicha natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari “BETLIS TEKSTIL” MCHJ korxonaning investitsiya faolligi koeffitsiyenti o'zgarishining empirik modelini qurish¹³

Bog'liq o'zgaruvchi: Y – korxonaning investitsiya faolligi koeffitsiyentini				
Usul: eng kichik kvadratlar usuli				
Qator: 2013-2023				
Kiritilgan o'zgaruvchilar: 22 ta				
O'zgaruvchi	Model koeffitsiyentlari	Standart xatolik	t-Styudent mezoni	R-qiymati
X ₁	1,634308513	0,01527449	54,62103759	1,80754E-10
